

UO‘T:638.141.65.

TOSHKENT VILOYATI SHAROITIDA ISHCHI ASALARILARNI QISHLOV DAVRIDA ORQA ICHAGIDA NAJAS MIQDORINING O‘ZGARIB TURISHI

Eshdavlatov Orif Zokirovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali “Zooinjeneriya va ipakchilik” kafedrasida dotsenti,

Xudoyqulov Avloqul Nurmanovich

O‘zbekiston ekologik partiyasi Qibray tuman kengashi raisi

Qo‘chqorov Abdukarim Nuriddinovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali “Zooinjeneriya va ipakchilik” kafedrasida assistenti

Xolbo‘tayev Ilyosjon Rustam o‘g‘li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali “Zooinjeneriya va ipakchilik” kafedrasida assistenti

***Annotatsiya:** Respublikamizda asalari oilalarini qishlovdan talofatsiz chiqarish usullari yoritilgan bo‘lib, asalari oilasini qishlov davrida ishchi asalarilarni orqa ichagida najas miqdori o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar.** Asalari, asalari chiqimi, qishlov, ramka, ozuqa, najas, tuxum, oila, mahsuldor, populyatsiya, ishchi.*

KIRISH

Qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari singari, asalarichilik sohasini rivojlantirish borasida ham, bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa asalarichilik sohasini barqaror rivojlantirishga huquqiy asos bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 oktabrdagi “Respublikamizda asalarichilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” gi -3327 sonli qarori, bu borada muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Aynan ana shu qaror asosida asalarichilik tarmog‘i jadal rivojlana boshladi.

Qishlov qish faslini faol mavsumida asalari oilasida bo‘ladigan barcha nuqsonlar, xato kamchilik va yetishmovchiliklarni oshkor etadigan davrdir. Bunday imtihon O‘zbekistonning tez o‘zgaruvchan iqlim sharoitida butunlay o‘zgacha va murakkab holda o‘tadi. Shu bois, asalarilarni qishlovga tayyorlash va uni

muvaffaqiyatli o'tishini tashkil etish kelgusida mo'l asal xosili olishga zamin yaratadi. Asalari oilasini qishlovi uchun kuchli shamol esadigan yo'llarni to'sadigan ixota daraxtzorlar, imoratlar bo'lishi va shunga o'xshash asalari qishloviga xalaqit bermaydigan joylarni to'g'ri tanlash choralari ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Qishlov davrida asalari oilasi bezovtalanmay, tinch yashasa, asalarilar iste'mol qiladigan kislorod miqdori va ajratadigan karbonat angidrid gazi kerakli miqdorda bo'ladi. Agarda asalari oilasi bezovtalansa, ozuqa ko'p iste'mol qilinadi va yuqoridagi gazlar miqdorlari o'zgaradi. Tinch holatda 1 kg asalari 1 soatda 457 kub sm kislorod sarflasa, bezovtalanagan asalarilar esa 297 ming kub sm yoki 650 marotaba ko'p kislorod iste'mol qiladi. Ana shuning uchun ham asalari oilasini bezovtalantirmay, uning qishlovi uchun sharoit yaratish kerak. Bu esa asalarilarni qishlov davrida chidamliligini bir muncha oshishiga sabab bo'ladi.

Qishlov davrida asalarilar asosan uglevod (asal, shakar) ozig'i bilan oziqlanadi. Asalari organizmidagi oziqa hisobiga modda almashinish jarayonida issiqlik ajralib chiqadi. Asalarilar 1 kg asal ozuqasi iste'mol qilsa 2720 kalloriya issiqlik, 1448 g karbonat angidrid va 502 g suv ajratadi. Demak, asalari oilasi qancha kuchli bo'lsa, uyadagi havo haroratini shuncha yaxshi ushlab turadi, asalari organizmidan energiya kam sarflanadi va jami asalarilar vazniga nisbatan kam ozuqa iste'mol qiladi.

Asalari oilasining qishlovga chidamliligini oshirish maqsadida kuz faslida asalari oilasini oqsilga boy ozuqalarga talabi juda katta bo'ladi, chunki bu davrda asalari oilasidagi ko'plab yosh asalarilar tarbiyalanadi. Xususan, qish davomida o'zidan ko'p energiya va kuch sarflab, ular qishlovdan juda kuchsiz bo'lib chiqadi. Shuning uchun kuzda asalari oilasini qo'shimcha oziqlantirish, ularning ozuqasiga oqsilga va vitaminlarga boy bo'lgan sumalak suvini asalari ozuqasiga qo'shib berish asalari oilasining rivojlanishiga va qishlov davrida, ular tanasida oqsil, vitaminlar tarkibini boy bo'lishiga hamda qishlovdan sog'lom bo'lib, talofatsiz chiqishini ta'minlaydi.

Qishlov uchun asalari uyasida qoldirilayotgan ramkalar soni asalarilar kuchiga mos tushishi kerak, ya'ni uyadagi nechta ramkani asalarilar qoplab turgan bo'lsa, o'sha ramkalarni qoldirib, ortiqcha ramkalarni asalari uyasidan olib qo'yiladi chunki, ortiqcha ramkalar asalari uyasining sovib ketishiga sabab bo'ladi, natijada bunday sovuq (namli) harorat asalari oilasiga har xil kasalliklarni ham keltirib chiqaradi. Buning uchun, oila kuchiga e'tibor berish (u 5-6 ramkadan kam bo'lmasligi kerak), ona asalari zoti va yoshi, ona asalarini qo'ygan tuxumlarining miqdori va sifati, asalari uyasida qoldirilgan ramkalarining sifatiga va undagi ozuqaning miqdoriga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Asalarilar qishda uyadagi usti berkitilgan mumkatalardagi asalning ustini ochib, oziqlanadi. Asalari inchaning usti ochilgach mo'tadil haroratda, undagi ozuqa asal, havodagi namlikni tezda o'ziga tortib, asalari iste'mol qilish uchun tayyor bo'ladi. Qish oylarining birinchi yarmida, asalari oilasi kam oziqlanadi, o'rta hisobda bir oila kuniga 20-25 g yoki bir oyda 600-700 g ozuqa asal iste'mol qiladi. Erta bahordan boshlab, oilada qurtchalar paydo bo'lishi bilan, asalari oilasining ozuqa iste'mol qilishi oyiga 1,0-1,2 kg gacha ko'payadi, qish oxirlariga borib, esa ikki marotaba ko'payadi.

Biz tadqiqotlarimizda asalarilarni qishlovga chidamliligini oshirish maqsadida asalari oilasini qishlovga tayyorlash oldidan, ularning ozuqa tarqibida sumalak suvi qo'shib berilganda asalarilarning fiziologik holati yaxshilandi. Shuningdek, ozuqa tarqibidagi bo'linmaydigan aminokislota oqsillarini parchalab, ularni ichaklarida so'rilishini tezlashtirdi. O'zbekiston iqlim sharoitida qishlovga tayyorlangan asalarilar ozuqasi tarkibiga sumalak suvini kiritish, qishlov jarayonlarini muvofiqlashtirib turadi va asalarilarni qishlovga chidamliligini 15-20% gacha oshiradi, hamda asalarilarni qishlovdan sog'lom, talofatsiz chiqishiga, ularni faol bo'lib chiqishini ta'minlaydi.

Qishlovga tayyorlash davrida charchagan, qari ishchi asalarilar o'rnini egallaydigan, yosh asalarilarni ko'paytirish lozim. Shu bois, kuzda asosiy e'tiborni ona asalarini yuqori darajada tuxum qo'yishiga va uyadagi yosh asalarilarni oziqlantirishga qaratish lozim. Qishlov uchun yosh asalarilarni ko'paytirish maqsadida, har bir asalari oilasiga 200-250 grammdan, 50%-li shakar sharbati tayyorlab ularga vitaminlarga boy qo'shimchalar berish lozim. Bunday oziqlantirish qishlovga tayyorlanayotgan asalari oilalaridagi yosh asalarilarning ko'payishida muhim o'rin tutadi. Oziqlantirish uchun zarur shakar sharbatini quyuproq qilib tayyorlash va ularga 1 litr shakar sharbatiga 2-3 gr sirka yoki limon kislotasi qo'shib, nordonlashtirish lozim. Bu o'z o'rnida shakar tarkibidagi saxarozaning tarkibiy qismlari bo'lgan glyukoza va fruktozaning tezroq parchalanishiga, asalarilarning qishgi ozuqa uchun berilgan shakar sharbatini qayta ishlashini kuchaytirishga yordam beradi.

MATERIAL VA METODLAR

Ilmiy tadqiqot ishlarimiz Toshkent viloyati Parkent tumani "Toshkent Bee Agro" asalarichilik xo'jaligida olib borildi. Asalarichilik xo'jaligidagi barcha asalari oilalarini ko'zdan kechirildi. Asalarizorda ilmiy ish olib borish uchun ajratilgan nazorat va tajriba guruhlarida qishlovni namunali o'tkizishni nazorat qilindi.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Respublikamiz hududida boqiladigan mahalliy populyatsiyadagi asalari oilalari tanlangan. Tadqiqotning usullarida Qishlov davrida asalari organizmida bo'ladigan fiziologik o'zgarishlar asalari orqa ichagidagi najas miqdori V.M. Jeryobkin (1979) uslubi asosida o'rganildi.

NATIJAR VA ULARNING TAHLILI

Asalari oilasining qishlov davrida chidamliligini oshirishning yana bir omili, bu qishlovdan oldin asalari ozuqasida har xil oqsilga va vitaminlarga boy bo'lgan maysali bug'doy (sumalak) suvi bilan oziqlantirish hisoblanadi.

Asalari oilalarini qishlov oldidan ularning ozuqa zaxirasini to'ldirish maqsadida 2018-2020 yillardagi qishlovi davrida ularning ozuqasi tarqibiga 50% li 10 litr shakar sharbatiga 1 litr sumalak suvi qo'shib, bir oy davomida haftada ikki marotaba asalari uyasidagi ustki ozuqa oxurchalariga kechqurunlari hamma asalarilar uyasiga qaytgandan so'ng berib borildi.

Asalarilarni qishlovdan sog'lom chiqishiga uning orqa ichagida to'planib qoladigan najas miqdorining oz va ko'pligi ham katta ta'sir etadi. Shu maqsadda biz o'tkazgan tadqiqotlarimizda mahalliy populyatsiyadagi asalarilar qishlovi davrida ularning orqa ichagidagi najas miqdorini to'planishini oyma-oy dala elektron tarozisida o'lchab aniqlab borildi. Asalari orqa ichagidagi to'plangan najas miqdorining o'zgarib turishi 1-jadvalda keltirilgan


1-jadval

Qishlov davrida asalari orqa ichagidagi najas miqdorining o'zgarib turishi, mg

Guruhlar		Dekabr	Yanvar	Fevral
Nazorat	Lim	10-37	21-54	14-52
	X±Sx	21,40±1,4	34,55±1,2	28,22±0,79
	Cv%	2,46	3,21	4,62
I-tajriba	Lim	9-35	19-39	8-19
	X±Sx	17,21±1,40	28,10±0,74	13,5±1,74
	Cv%	2,53	3,25	4,78
II-tajriba	Lim	10-28	20-38	15-29
	X±Sx	19,0±1,15	29,0±0,21	22,0±0,91
	Cv%	2,41	3,11	4,15

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinyaptiki, maysali bug'doy (sumalak) suvi bilan oziqlangan tajriba guruhlarida qishlov oxirida asalari orqa ichagi eng kam miqdorda (13,5±1,74) najas to'plangan. Nazorat guruhlarida esa u eng ko'p yanvar oyida 34,5 mg-ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar asalarilarni qishlov davrida uning chidamliligini oshirishda ularni sog'lom bo'lib chiqishidan dalolat berdi. Tajriba guruhlarida esa bu ko'rsatkich yanvar oyida 28,10 mg ni yoki nazorat guruhiga nisbatan 6,45 mg ga kam bo'lganligini va 81,3% ni tashkil etdi.

Natijada tajriba guruhlarida qishlov davrida asalari orqa ichagida najas miqdori nazorat guruhiga nisbatan dekabr oyida 80,4% ga, yanvar oyida 81,3% ga va fevral oyida esa 37,9% ga yetganligi aniqlandi. O‘zgaruvchanlik koeffitsienti hamma variatlarida ham 2,53-4,48% ni tashkil etdi.



1-rasm. Qishlov davrida asalari orqa ichagida najas miqdorini o‘zgarish diagrammasi

2-rasmda asalari qishlovi davrida dekabr, yanvar va fevral oylarida asalari orqa ichagida to‘planadigan najas miqdorining to‘planishi va oylar davomida uni o‘zgarib turishi dinamikasi keltirilgan. Bu rasm ma‘lumotlari tajriba guruhidagi asalari oilalaridagi ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanganligidan dalolat beradi.

XULOSA

Asalari oilasini muvaffaqiyatli qishlashini ta‘minlash maqsadida, ko‘pchilik tumanlarda qishga qoldirilgan asal ozig‘ining 6-8 kg ni shakar sharbati bilan almashtirish maqsadga muvofiqdir. Qish cho‘zilib ketib, asalarilar orqa ichaklaridagi axlatni uzoq vaqt tozalolmay yurgan paytlarida, shakar sharbatining ahamiyati katta.

Shuningdek, O‘zbekiston iqlim sharoitida qishlovga kiradigan asalarilar ozuqasi tarkibiga sumalak suvini kiritish, qishlov jarayonlarini muvofiqlashtirib turadi va asalarilarni qishlovga chidamliligini 15-20% gacha oshiradi, hamda asalarilarni qishlovdan sog‘lom, talofatsiz chiqishiga, ularni faol bo‘lib chiqishini ta‘minlaydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kraxotin N.F. O‘zbekistonda asalarichilik. Toshkent “Mehnat” 1991.
2. Isamuhammedov A.I. Nikadambaev H.K. “Asalarichilikni rivojlantirish asoslari” Toshkent, 2013
3. Тўраев О.С. Зимовка пчелиных семей. ж. «Селское хозяйство Узбекистана», 2005. № 12. стр.27
4. То‘раев О.С. Eshdavlatov O.Z. Asalari oilasi qishlovi va uni tashkil etish. Toshkent, “Munis” nashriyoti, 2014